

## Spartakiada natijalari

"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish" ta'lif yo'naliishi 2-bosqich talabalarining TIQXMMI "O'quv-ilmiy markazida" o'tkazilgan "Melioratsiya va qurilish mashinalarini boshqarish" amaliyoti davrida yoshlarimizning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish hamda sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, shashka, voleybol, 100 metrga yurugish, armwrestling kabi sport musobaqlari o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, Spartakiadaning voleybol turi bo'yicha, 1-o'rinn 203- guruh talabalari, 2-o'rinn 202 - guruh talabalari, 3-o'rinn 207 -guruh talabalari g'oliblikni qo'lga kiritishdi. 100 metrga yugurish turi bo'yicha 1-o'rinn 203 guruh talabasi Sulaymonov Sharifjon, 2-o'rinn 202 -guruh talabasi Raximov Muhammadjon, 3-o'rinn 204- guruh talabasi Umarov Rustambek hamda Armwrestling turi bo'yicha 1-o'rinn 207- guruh talabasi Akbaraliev Azimjon, 2-o'rinn 203- guruh talabasi Olimov Shaxzod, 3-o'rinn 205- guruh talabasi Muxtorov Jasurbek musobaqa g'olibiga aylanishdi. Qizlar o'rtasida o'tkazilgan Spartakiadaning shashka turi bo'yicha 1-o'rinn 202- guruh talabasi Qurbonova Shaxlo, 2-o'rinn 201-guruh talabasi Hamidova Gavhar, 3-o'rinn 201- guruh talabasi Nurmatova Dilnoza g'oliblikni qo'lga kirtdilar. GIM fakulteti dekani B.Norov tomonidan o'ndan ortiq talabalarimiz amaliyot davrida faol ishtiroki hamda kitobxonligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Spartakiadada o'rinn egallagan talabalarimizga institutimiz Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Q.Shavazov tasdiqlagan darajali diplomlar berildi. Yuqorida beshta tashabbus doirasida o'tkazilgan kitobxonlik hamda sport musobaqlari amaliyotda qatnashgan barcha talabalarni qamrab oldi.



**"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi Xolova Sarvinoz axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**